

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEK FRAZEOLOGIZMLARINING GRAMMATIK VA SEMATIK TAHLILI

Oybek Raimjonov Xalimjon o'g'li

FarDU akademik litseyi o'qituvchisi.

bekraimjonov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16493995>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Frazelogik birliklarning O'zbek tilshunosligida mustaqillik davrida o'rganilish ko'lami va e'tiborga olingan jihatlari tahlil qilingan.

Frazelogizmlar oid qilingan ishlar va ularda ilgari surligan masalalar borasida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Frazelogizmlar, iboralar sematik tabiati, frazemalar grammatik xususiyatlari.

Аннотация. В статье анализируется состояние изучения фразеологических единиц в узбекском языкознании в период независимости и рассматриваемые при этом аспекты. Приводятся комментарии к работам по фразеологизмам и поднимаемым в них вопросам.

Ключевые слова: Фразеологизмы, семантический аспект фразы, грамматические особенности фразеологии.

Abstract. The article analyzes the state of the study of phraseological units in Uzbek linguistics during the period of independence and the aspects considered. Comments are given on works on phraseological units and the issues raised in them.

Key words: Phraseologisms, semantic aspect of phrases, grammatical features of phraseology.

KIRISH

Til kommunikativ, emotsional-ekspressiv va boshqa bir qancha funksiyalar bilan bir qatorda sohalarida axborot berish, insonlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlikni ta'minlash, qadriyat asosida tarbiyani shakllantirish vazifalarini bajaradi. Tilning antroposentrik talqinida mental ong, tafakkur, idrok, madaniy munosabatlar muhim o'rin tutadi. Frazelogizmlar ko'chma ma'noga asoslangan lug'aviy birliklar bo'lib, frazeologik ma'no asrlar davomida til egasining lisoniy ongi, idrokiga bog'liq ravishda shakllanib, sayqallanib boradi. Frazelogizmlar milliy tilning barcha ijtimoiy funksiyalarini, milliy qadriyatlarni qamrab oluvchi til birliklaridir. Ularni to'plash, saqlab qolish, iste'mol doirasini kengaytirish va grammatik tabiatini tahlilga olish milliy til taraqqiyotini takomillashtirish omillaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mustaqillik, istiqlol shabadasi boshqa fanlar qatori mamlakatimizda tilshunoslik fani ravnaqiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Mustaqillik davrida tilimizning frazeologik boyligini to'la qamrab oluvchi turli xil izohli lug'atlar, so'zliklar yaratishga alohida ahamiyat berildi. Masalan, Sh.Rahmatullayevning «O'zbek tilining frazeologik lug'ati» (1992), M.Sodiqovning «Qisqacha ruscha o'zbekcha barqaror iboralar lug'ati» (1994), Mahmud Sattorning «O'zbekning gapi qiziq» (1994), B.Yo'ldoshev, K.Bozorboyevning «O'zbek tilining frazeologik lug'ati» (so'zlik, 1998), Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovlarning «Ma'nolar mahzani» (2001) singari leksikografik asarlar shular jumlasidandir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda frazeologiya va frazeografiya muammolariga doir ikkita respublika ilmiy anjumani o'tkazildi.

Bu ilmiy anjumanlarda o'zbek frazeologiyasi bilan bir qatorda german, slavyan va eron tillari frazeologiyasini tadqiq etishga ham e'tibor qaratilgan edi[6]. Shu bilan birga keyingi yillarda o'tkazilgan "Uslubshunoslikning dolzarb muammolari" (Samarqand, 1998), "Tilshunoslikning dolzarb masalalari va nutq madaniyati muammolari" (Termiz, 2004), "Til va milliy madaniyat" (Samarqand, 2004), "Professor Ulug' Tursunov va o'zbek tilshunosligi" (Samarqand, 2005), "O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari" (Farg'ona, 2005), "O'zbek filologiyasining dolzarb masalalari" (Namangan, 2006), "Nutq lingvistikasi" (Samarqand, 2006), "O'zbek uslubshunosligining dolzarb muammolari" (Farg'ona, 2006), "Tarjima jarayoni va horijiy tillarni o'qitishning dolzarb muammolari" (Samarqand, 2006), "Tilshunoslikning dolzarb masalalari" (Toshkent, 2006), "Istiqlol va tilshunoslik muammolari" (Samarqand, 2006) mavzuidagi xalqaro va respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida ham ma'lum darajada o'zbek frazeologiyasi masalalariga oid ma'ruzalar tinglangan hamda muhokama qilingan edi.

Mustaqillik yillarida o'zbek frazeologiyasiga doir Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi" (1992), A.Mamatovning "Frazeologik stilistika masalalari" (1991), "Frazeologizmlarning shakllanish asoslari" (1996), "Frazeologizmlar shakllanishining nazariy asoslari" (1997), A.Abdusaidovning "Frazeologizmlar – matbuot tilida ta'sirchan vosita" (2001), mazkur satrlar muallifining "Frazeologiya tarixidan lavhalar" (1998), "Frazeologik uslubiyat asoslari" (1999), "Perifrazalarning frazeologizmlar bilan munosabati va ularni maktabda o'rganish masalalari" (hamkorlikda, 2001), "O'zbek tilida frazeologizmlarning uslubiy va pragmatik imkoniyatlari" (2002), "Ufq" trilogiyasining lingvopoetik tahlili masalalari" (hamkorlikda, 2006), "Shoir Erkin Vohidovning frazeologizm qo'llash mahorati haqida" (hamkorlikda, 2007), "O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti" (2008), "O'zbek tilida o'zlashma frazeologizmlarning semantik-uslubiy xususiyatlari" (hamkorlikda, 2012) singari qator tadqiqotlari maydonga keldi.

MUHOKAMA

Mustaqillik yillarida o'zbek frazeologiyaning nazariy masalalarini o'rganishga e'tibor kuchaydi. Jumladan, tadqiqotchi Q.Hakimov sodda gap qolipli *joni kirib qoldi, boshi ko'kka etdi, yuragi orqasiga tortib ketdi, boshi osmonga etdi, yuragi shuvillab ketdi, og'zi ochilib qoldi, yuragi qoq yorilayozdi* singari frazeologizmlarni komponent tahlil metodi asosida o'rgandi, shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Q.Hakimovning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, "frazeologizmlarning yuzaga kelishi faqat ma'no hodisasidir. Uning tarkibidagi bo'laklar o'rtasida shakllangan sintaktik munosabat o'z qimmatini saqlagan, o'zgarishga uchramagan holatda qoladi. Bunda sodda gap qolipli frazeologizmlar garchi ma'no jihatdan til birligi holiga kelib qolgan bo'lsa ham, sintaktik jihatdan sodda gaplik qimmatini saqlaydi. U nutq tarkibida gap sifatida olinib, boshqa bo'laklar unga moslashtiriladi va uning biror bo'lagiga bog'lab qo'llanadi"[5].

Frazemalarni komponent tahlil qilishning ayrim natijalari Sh.Rahmatullayevning ilmiy maqolasida va 1992 yilda nashr etilgan "O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi" nomli monografiyasida ham umumlashtirilgan. Jumladan, Sh.Rahmatullayev *ta'bi xira, dili siyoh, bag'ri qon* frazemalarining semantik strukturasi quyidagicha qiyoslaydi: "Har uch frazmadan "hafa"lik ma'nosi anglashiladi, lekin bu "xafa"lik ta'b/i/ xira frazemasida boshlang'ich bosqichda ("bir oz"), dil/i/ siyoh frazemasida normal holatdan yuqoriroq ("normadan kuchliroq darajada"), bag'r/i/ qon frazemasida esa eng yuqori bosqichda ("o'ta kuchli darajada") ekani anglashiladi. Shunga ko'ra ta'b/i/ xira frazemasida "kayfiyati bir oz yomon holatda" ma'nosini anglatadi, dil/i/ siyoh frazemasida "ruhiyati yomon" ma'nosini, bag'r/i/ qon frazemasida esa "g'am-

alam, iztirob bilan to'lib-toshgan" ma'nosini anglatadi. Ma'nodagi bu qadar katta farqlanish yuqoridagi uch frazema o'zaro sinonim emasligini ko'rsatadi. Asli ma'nodagi bunday farqlanishni "emotsiyaning kuchli-kuchsiz darajada kechishi" semasi deb emas, balki "ma'no gradatsiyasi" semasi deb nomlash to'g'riroq"[1, 19].

Prof.Sh.Rahmatullayevning ta'kidlashiga ko'ra, *dodini bermoq, ko'ngliga tugmoq, yo'lga solmoq* kabi "fe'l frazemalardagi bog'lashuv ko'p qirrali o'ta murakkab hodisa bo'lib, o'z doirasiga turli-tuman sintaktik, semantik hodisalarni qamrab oladi. Bog'lashuv imkoniyati til birligiga mansub xususiyat deb qaralgani bilan, bu xususiyat til birliklarining o'zaro bog'lashuvida namoyon bo'ladi, moddiylashadi. Til birligiga xos bog'lashuvning mohiyati leksik-grammatik qurshov tufayligina ochiladi. Bunda til birligiga xos ochiq o'rinni qanday sintaktik bo'lak egallashi (sintaktik bog'lashuv), bu bo'laklarning qanday grammatik shaklda kelishi (morfologik bog'lashuv), bu bo'laklarning atalganligi (grammatiksemantik bog'lashuv) hisobga olinadi. Semantik bog'lashuv (semantik tanlanuv) deb yuritiladigan bosqichda esa o'zaro bog'lashuvchi lug'aviy ma'nolarning ideografik semalari asosida fikr yuritiladi." [3, 12] 1998-yilda Sh.Usmonova "O'zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar" mavzusida nomzodlik ishini himoya qildi. Bu ish ikki bobdan iborat bo'lib, ish oxiriga o'zbekcha-turkcha muqobil somatik frazeologizmlar lug'ati ilova qilingan [8, 20].

M.Xoliqovanning nomzodlik ishida til va tafakkur, dunyoning til kartinasi, antropomorfik omillarning tilga ta'siri kabi muammolarga oid hozirgi zamon tilshunosligida mavjud qarashlar va konsepsiyalar tahlil qilingan. Mazkur ishda ilk bor frazeologizmlarning milliy semantikasi, ekstralingvistik (milliy-madaniy, etnografik, geografik, tarixiy) omillarning frazeologizmlar semantikasiga ta'siri kabi muammolar rus va o'zbek tillari frazeologiyasi misolida o'rganilgan [9, 26].

Umuman olganda, bunday tadqiqotlar mamlakatimizda kelgusida qiyosiy frazeologiya sohasida juda ko'p ilmiy ishlar olib borish mumkinligini amaliy jihatdan isbotladi. Chunki, o'zbek va ingliz, o'zbek va nemis, o'zbek va tojik, o'zbek va fransuz, o'zbek va arab, o'zbek va qoraqalpoq tillarining frazeologiyasini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil etish xalqaro miqyosda mamlakatimiz nufuzi ortib borayotgan bir sharoitda o'zbek frazeologiyasining dolzarb muammolaridan birini tashkil etadi.

1999-yilda H. Shamsiddinov "O'zbek tilida so'zlarning funksional-semantik sinonimlari" mavzusida doktorlik ishini himoya qildi. Bu ish muallifi FBlni oddiy so'zlarning funksional-semantik sinonimlari (FSS) deb hisoblaydi va shu nuqtai nazardan *ayyor – shaytonga dars beradigan, pixini yorgan; xursand - og'zi qulog'ia etdi; uyalmoq – erga qaramoq, shoshilmoq – podadan oldin chang chiqarmoq, yuzlari lov-lov yonmoq; go'dak – tuxumdan chiqqan, aralashmoq – burnini tiqmoq; indamay – lom-mim demay, yuvosh – qo'y og'zidan cho'p olmagan, haydamoq – dumini tugmoq* kabi so'z va frazeologizmlar orasidagi sinonimik munosabatlarni semantik jihatdan keng o'rganishga harakat qilgan. Bu ishda so'zlarning funksional-semantik sinonimlari (SFSS)ga quyidagicha ta'rif berilgan: "muayyan narsa-hodisalarni, ularning belgisi, miqdori, holati, harakati va o'zaro munosabatlarini tasviriy tarzda, ko'pincha ifoda maqsadiga muvofiq qayta nomlab yoki narsa-hodisaga hoslab ifodalaydigan va alohida so'zga sinonim bo'ladigan tilning so'z va undan katta sath birliklari so'zlarning funkcionalsemantik sinonimlari deyiladi"[2]. Olimning bu ishi tilimizning sinonimik doirasi naqadar keng va boy ekanligini ko'rsatadi.

A.Mamatov "Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari" nomli monografiyasi (1991) va shu asosda himoya qilingan doktorlik

dissertatsiyasida o'zbek tilshunosligida ilk bor frazeologiyaning til normasi va nutq madaniyati bilan bog'liq muammolarini tadqiq etdi. Mazkur ishning so'nggi bobi "Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik norma va undan chetga chiqishning tiplari" deb. Nomlangan[2, 207]. Muallif mazkur qismda frazeologiyaga doir turli qarashlarni tanqidiy jihatdan ko'zdan kechirib, frazeologizmga: Frazeologizm - bu tuzilishi jihatdan so'z birikmasiga yoki gapga teng bo'lgan, umumlashgan ma'no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan, turg'un leksik-semantik birlikdir", - deya ta'rif beradi. Bu ta'rif bizningcha ham haqiqatga biroz yaqin bo'lib, frazemalarning quyidagi kategorial belgilarini hisobga olgan: a) frazema komponentlari tuzilishi jihatdan so'z birikmasiga yoki gapga teng bo'ladi, yakka so'z-komponentdan iborat frazema yo'q; b) frazema komponentlari umumlashgan, yaxlit ma'no ifodalaydi; v) frazemani tashkil etuvchi so'z - komponentlar, ya'ni leksik elementlar qisman yoki to'liq ko'chma ma'noga ega bo'ladi; g) frazema turg'un leksik-semantik birliklar qatoriga kiradi. Bulardan tashqari frazemalarda mavjud bo'lgan obrazlilik, ekspressivlik, komponent tarkibining alohida-alohida rasmiylashganligi, nutqda takror holda qo'llanuvchanlik kabi belgilarni A.Mamatov frazemalarning nokategorial belgilari sifatida tushungan ko'rinadi.

A.Mamatov tadqiqotining eng muhim fazilatlaridan biri o'zbek tilshunosligiga frazeologik norma tushunchasining olib kirishidir. To'g'ri, frazeologik normaga doir ayrim kuzatishlar, yo'l-yo'lakay bayon qilingan fikrlar ilgari ham mavjud edi. Masalan, Sh.Rahmatullayev o'z nomzodlik dissertatsiyasidayoq frazeologik normaga rioya qilish masalasiga e'tiborni qaratgan edi. A.Mamatov esa o'z ishida frazeologik normaning nazariy va amaliy muammolarini yaxlit holda o'rta qo'ydi.

A.Mamatov o'zbek frazeologiyasi uchun eng dolzarb muammolardan frazeologik shakllanish masalalarini tadqiq etish bilan shug'ullandi shu mavzuga oid "O'zbek tilida frazeologik shakllanish masalalari"(1994), "Frazeologizmlarning leksik qayta shakllanishiga doir"(1995), "Frazeologizmlarning shakllanish doirasi"(1995), "O'zbek tilida frazemalarning shakllanishi haqida"(1996), "Leksemalar asosida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari"(1996), "Qo'l" somatizmi asosida shakllangan frazemalar va ularning lug'atlarda ifodalanishi"(1997) singari yigirmaga yaqin maqolalar, "Frazeologizmlarning shakllanish asoslari" (1995), "Frazeologizmlar shakllanishining nazariy asoslari" (1997) nomli monografik tadqiqotlar e'lon qildi va 2000 yilga kelib, "O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari" mavzusida doktorlik ishini himoya qildi. Bu esa o'zbek frazeologiyasining ilmiy doirasini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Ishda ta'kidlanishicha, "frazeologizmlar faqat frazeologik neologizmlarning paydo bo'lishi bilan emas, balki tilda mavjud frazeologizmlarning semantik, grammatik va funksional jihatdan yangilanishi asosida ham shakllanadi. Frazeologizmlarning shakllanishida ro'y beradigan leksik, semantik, grammatik o'zgarishlar faqatgina stilistik ehtiyoj bo'lmasdan, balki til ichki tizimining ehtiyoji hamdir"[10, 50].

Abdug'afur Mamatov evfemistik shakllanish, disfemistik shakllanish, frazema hosil bo'lishining transpozitsiya usuli kabi bir qator usullar haqida ham fikr mulohaza yuritadi. Lekin, bizningcha, bu ishlarda frazema bilan unga yaqin turuvchi, oraliq hodisalar (masalan, parafraza yoki perifrazalar) qat'iy farqlanmagan ko'rinadi.

Shuningdek, mustaqillik yillarida himoya qilingan M.Yo'ldoshevning "Cho'lponning badiiy til mahorati" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasi(2000)da va shu asosda nashr etilgan "Cho'lpon so'zining sirlari" nomli risolasi (2002)da Cho'lpon asarlarida, ayniqsa, uning "Kecha va kunduz" romanida qo'llangan frazeologizmlar ancha asosli tahlil qilindi. I.G'aniyevning "Fitrat drammalari poetikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasi (1998)ning so'nggi ikki bobi badiiy

tasvir poetikasi hamda til va uslub masalalariga bag'ishlangan. Bu ishda Fitrat dramalarida frazeologizmlarning qo'llanish xususiyatlari ham ma'lum darajada tahlilga tortilgan. F.Bobojonovning "O'zbek jadid dramalarining lisoniy xususiyatlari (Behbudiy va Avloniy dramalari asosida)" mavzuidagi (2002), R.Normurodovning "Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlari (lug'aviy va uslubiy jihatlari)" mavzuidagi (2000) nomzodlik dissertatsiyalari haqida ham xuddi shu fikrni aytish mumkin.

K.Bozorboyevning nomzodlik ishi ham o'zbek frazeologiyasi rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Bu ishning dastlabki bobida so'zlashuv nutqi frazeologizmlari (SNF)ning paydo bo'lish manbalari, qatlamlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Keyingi bobda esa o'zbek tilida SNFlarning grammatik va semantik tasnifi amalga oshirilgan. Shunisi muhimki, ish muallifi SNFlarning 40 foizi o'zbek adabiy tilida ham o'z aksini topganligini, 50 foizi esa so'zlashuv nutqida turli xil variant va sinonimlarga ega ekanligini, ularning faqat 10 foizi lug'atlarda so'zlashuv nutqiga xoslangan (st.f.) havolasi bilan berilganligini to'g'ri ta'kidlab ko'rsatadi[11].

A.Abdusaidovning monografiya va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalari hamda "Gazeta janrlarining til xususiyatlari" mavzuidagi doktorlik ishining alohida qismi frazeologizmlarning gazeta tilida ekspressivlikni ifodalovchi vosita sifatidagi rolini tadqiq qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotchi *yotib qolgan mahsulotlar, urning jilovini mahkamroq ushlamoq, ko'rgiliklar botqog'iga botgan, shikoyatchining noni butun bo'lsa, ta'naning bir uchi tegadi* singari okkazonal iboralarning gazeta tilida bir-ikki marta ishlatilib, so'ng iste'moldan qolayotganligini, shu sababli ularni to'plash, okkazonal iboralar lug'ati tuzish zarurligi haqida asosli fikr-mulohazalar bildiradi[12, 48].

Masalan, prof. Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi" nomli tadqiqotida frazeologizmlar dastlab bog'lashuvli va bog'lashuvsiz iboralar deb ikki guruhga ajratilgan; bog'lashuvchi frazeologizmlar esa o'z navbatida bir, ikki, uch bog'lashuvli deb guruhlangan va ularning bog'lashuv imkoniyati keng yoritilgan. Ishning alohida qismlarida frazeologizmlardagi variatsiya va bog'lashuv, polisemiya va bog'lashuv masalalari o'rganilgan.

Shunisi muhimki, frazeologiya faniga doir yangicha ilmiy-nazariy qarashlar keyingi yillarda yaratilayotgan darslik va o'quv qo'llanmalaridan ham mustahkam o'rin olmoqda. Masalan, prof. M. Mirtojiyevning fikricha, iboralar turg'un birikma holdagi atamalar (*melodiy yil, agrar masala, katta maslahatchi, ilmiy xodim* kabi), parafrazalar (*mo'yqalam sohibi, ilm zahmatkashlari, zangori kema kapitani* kabi) va frazeologizmlar (*ko'ngli xira tortdi, kavushini to'g'rilab qo'ydi* kabi)dan iborat[18].

Prof.H.Jamolxonov esa frazemalarni ko'chma ma'noli turg'un konstruksiya deb hisoblaydi. Olimning ta'kidlashiga ko'ra, frazema ham leksema kabi lug'aviy birlik sanaladi, ammo o'zining ifoda va mazmun planlaridagi qator belgilari bilan farqlanadi[14, 216].

Prof.Sh.Rahmatullayev "Hozirgi adabiy o'zbek tili" nomli yangi darsligida frazeologizmlarni o'rganuvchi sohani frazemika deb nomlaydi. Bu ishda ta'kidlanishicha, "frazema til qurilishining lug'at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik bo'lib, bittadan ortiq leksemaning o'zaro semantiksintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo'ladi, shunga ko'ra tuzma segment birlik deyiladi; sintaktik tuzilishi jihatidan birikmaga, gapshaklga teng bo'lib, odatda nominativ va signifikativ vazifa bajaradi, lekin leksemadan ifoda jihati bilangina emas, mazmun jihati bilan ham farq qiladi"[15] Bundan ko'rinadiki, frazemalarning xususiyatlarini talqin qilishda yangi nashr etilgan darslik va qo'llanmalarda ham yaxlitlikka erishilganicha yo'q.

“O‘zbek tilshunosligi tarixi” asarida ta’kidlanishicha, mustaqillik yillarida “o‘zbek frazeologiyasining yangi muvaffaqiyatlarga erishuvida B.Yo‘ldoshev, Abdimurod va Abdug‘ofur Mamatovlarning xizmatlari katta bo‘ldi. B.Yo‘ldoshev frazeologizmlarning konnotativ ma’nolari, badiiy tasvir vositasi sifatida imkoniyatlarini atroflicha yoritib berdi.

Abdimurod Mamatov frazeologik norma muammosini ko‘tarib chiqdi va frazeologik norma hamda frazeologik variant o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatib berdi.

Abdug‘afur Mamatov esa, o‘zining qator asarlarida (biz bu asarlarning ayrimlarini yuqorida ma’lum darajada tahlil qildik – B.Y.) frazeologik shakllanish muammolarini o‘rtaga qo‘ydi va uning paydo bo‘lish omillarini yoritib berdi. Frazeologizmlarning muhim farqlovchi belgisi mazmuniy qayta shakllanish ekanligini ko‘rsatdi.

Shunday qilib, Sh.Rahmatullayev asos solgan o‘zbek frazeologiya maktabi tobora takomillashib, rivojlanib bormoqda”.

XULOSA

Umuman olganda, mustaqillik yillarida o‘zbek tilshunosligi frazeologizmlarning struktural-grammatik, semantik-uslubiy va funksionalpragmatik jihatdan o‘rganish sohasida muayyan yutuqlarga erishdi, bir qator yangi monografiyalar, risolalar, o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqolalar, frazeologik lug‘atlar yaratildi, bir necha nomzodlik dissertatsiyalari (Q.Hakimov, Sh.Usmonova, M.Holiqova, K.Bozorboyev, B.Jo‘rayeva, Sh.Abdullayev, Sh.Almamatova, M.Vafoyeva) hamda doktorlik dissertatsiyalari (B.Yo‘ldoshev, Abdimurod Mamatov, Abdug‘afur Mamatov) himoya qilindi. Shunday bo‘lsa-da, o‘zbek frazeologiyasida hali chuqur ilmiy o‘rganishni taqozo etuvchi muammolar ham anchagina bor. Aslini olganda, frazeologizm O‘zbekistonda ham keng ko‘lamda o‘rganilgan sohani tashkil qiladi. Haqiqatan ham ko‘p ish qilingan. Biroq erishilgan yutuqlarga rahna solmagan holda aytish kerakki, kelgusida qilinadigan ishlarimiz bundan-da ko‘p.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Раҳматуллаев Ш. Лексема ва фразема маъносини компонент таҳлилнинг баъзи натижалари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986. № 3. – Б. 19-20;
2. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент: 1991. – Б. 207-272;
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. - Тошкент: Университет, 1992. – Б. 12-32.
4. Шамсиддинов Х.Перифразалар хусусида айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1993. № 4. – Б. 29-35;
5. Ҳакимов Қ. Ўзбек тилидаги содда гап қилипли фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанлиги. НДА. –Тошкент: 1994.
6. Актуальные проблемы фразеологии, материалы республиканской научно-теоретической конференции (Самарканд, СамГУ, 25-26 ноябрь 1994 г.). – Самарканд: СамДУ нашри, 1995. – 102 б.;
7. Умиров И. Ўзбек тили парафразалари. НДА. - Тошкент: 1996. – Б. 7-8;
8. Усмонова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар. НДА. - Тошкент: 1998. – 20 б.
9. Халикова М.К. Фразеология как форма отражения национального менталитета в языковой картине (на материале русского и узбекского языков). АКД. – Ташкент, 1999. – 26 с.

10. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. ДДА. – Тошкент: 2000. – Б.50.
11. Бозорбоев К.Т. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари. НДА. – Самарқанд: 2001. – Б. 14.
12. Абдусайдов А. Фразеологизмлар – матбуот тилида таъсирчан восита. – Самарқанд: 2001. – 48 б.;
13. Бегматов Э., Абдусайдов А. Матбуот тилида фразеологик неологизмлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 2002. № 1. – Б. 23-
14. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Талқин, 2005. -Б. 216.
15. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 418.
16. Айтбоев Д. Перифразаларнинг ўрганилишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 2006. № 5. – Б. 86-88;
17. Умиров И. Фразеологизм ва паралингвистика // Илм зиёдир (Проф.Равшанхўжа Расуловнинг 60 йиллигига бағишланади). – Тошкент: 2006. – Б. 123-125 ва бошқалар.
18. Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Университет, 2004. 183-186-бет.